

CHOLG'ULARNING KELIB CHIQISH TARIXI HAMDA KISHILIK JAMIYATIDAGI O'RNI

Jo'rayev Azamat Yusuf o'g'li

Termiz davlat Universiteti Musiqa ta'limi kafedrası "Cholg'u ijrochiligi"
121-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Cholg'ularning kelib chiqish tarixi hamda kishilik jamiyatidagi o'rni" mavzusi asosida ma'lumotlar yig'ildi va ularni yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Membranofon, idiofon, sanj, tarelka, ritm, usul, doira, zarbli cholg'ular, debu, daff, daz, dov, cholg'u, manba, ijrochi, qarsak, chapak, mehnat, san'at, madaniyat, nisoniy, g'o'la, harbiy cholg'ular.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan avvalgi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga hos takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'ular turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularning turlari shakllangan.¹ Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham miloddan uch ming yil oldin ma'lum bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg'usidek o'z shaklida yetib kelgan. Zarbli cholg'ular - doira, debu, daff, daz, dov, sanj, g'o'lachalar miloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniy davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan. Doyra va sanj cholg'usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olim T.Vizgo fikr yuritib, sanj cholg'usining o'rtasidan tasma o'tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta'kidlaydi. Samarqandning Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idan topilgan eramizdan besh ming yil avval suyakdan ishlangan va beshta barmoq bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday kuylar ijro

¹ A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi". "Musiqa" nashriyoti. Toshkent-2017 yil. 9-10-betlar.



etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida yetib kelmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi.

Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlardan, qarsak chalish, qo'llari bilan badanini chertishdan paydo bo'luvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar – zarbli cholg'ularning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ritm-usul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri bo'lib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq-tabiati va koinot bilan uyg'unlashtiruvchi yagona vosita bo'lgan. Miloddan avvalgi, ikki ming yillikka oid Samayli-tosh arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalarda doyrasimon cholg'ularda ijro etayotgan sozandalar tasvirlangan. Bu esa doyraning qadim zamonlardayoq ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lgan zarbli cholg'u ekanligini tasdiqlaydi.²

O'rta Osiy hududlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olingan ma'lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doyraga asosan ayollar jo'r bo'lgan. Ularning doyra usullariga mos qo'shiq aytishi va raqsga tushishi o'sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelmoqda. Doyra, qayroq, zang va safoyillar oymoma marosimlarida koshinlar tomonidan keng qo'llanilgan. Niso peshtoqlarida tasvirlanishicha, doyra diniy marosim raqslariga jo'r bo'luvchi mas'ul cholg'u sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning o'zlari, ba'zan esa maxsus doyrachilar tomonidan ijro etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi". "Musiq" nashriyoti. Toshkent-2017 yil. 9-10-betlar.
2. Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет
3. Boboramazonovich, K. O. (2022). CHARACTERISTICS OF THE PERFORMANCE OF PEOPLE IN ALLAH, LAPARS, SPEECH IN THE SURKHAN VOLUME. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 95-102.

URL: <http://www.sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/1517>

² Вызго Т. Музыкальные инструменты Средней Азии. - М., 1980, 15-бет



4. XO Boboramazonovich, Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.

URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.

5. O'zbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Jarqo'rg'on", "Sharshara", "Mahliyo", "Qo'ng'iroq" va "Zevar" folkloretnografik jamoalari xususida OB Xakimov, Science and Education, 2022.

URL:https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1BkDoSMAAAAJ&citation_for_view=1BkDoSMAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

6. Choriyev, B. (2021). *UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR*.

URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>

7. Bekzod Bahrom O'G'Li Choriyev (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3 (4), 776-780.

URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi>

8. Bekzod, C. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THE RAVINES OF IMPROVEMENT. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 76-79.

